



GEOPOLITICAL ASPECTS OF THE MODERN FOREIGN POLICY OF THE REPUBLIC OF TURKEY

Javlon Abdullayev

Researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Republic of Türkiye, foreign policy, geopolitical factors, historical legacy, civilizational identity, AKP.

Received: 24.02.26

Accepted: 25.02.26

Published: 26.02.26

Abstract: This article examines the characteristics of the modern foreign policy of the Republic of Türkiye in relation to geopolitical factors. The study highlights the country's historical-imperial legacy, civilizational identity, religious-confessional composition, and democracy-based modernization processes as key determinants shaping its foreign policy. In addition, Türkiye's strategic geographical position connecting Europe, Asia, and Africa, its control over vital straits, and its maritime (thalassocratic) capacity are evaluated as crucial geopolitical components defining its regional and global political role. The article further demonstrates that in the post-Cold War period — particularly after the rise of the AKP to power — Türkiye's foreign policy vector underwent significant transformation, acquiring a multi-vector character shaped by Davutoğlu's new strategic approach. In conclusion, the study argues that Türkiye's unique identity and geopolitical position remain decisive factors influencing its long-term foreign policy trajectory.

TURKIYA RESPUBLIKASI ZAMONAVIY TASHQI SIYOSATINING GEOSIYOSIY JIHATLARI

Javlon Abdullayev

Tadqiqotchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Turkiya Respublikasi, tashqi siyosat, geosiyosiy omillar, tarixiy meros, sivilizatsion identiklik, AKP.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiya Respublikasining zamonaviy tashqi siyosatining geosiyosiy omillar bilan bogʻliq xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda mamlakatning tarixiy-imperial merosi, sivilizatsion identikligi, diniy-konfessional tarkibi hamda demokratiya asosidagi modernizatsiya jarayonlari tashqi siyosatni belgilovchi asosiy omillar sifatida koʻrsatilgan. Shuningdek, Turkiyaning Yevropa, Osiyo va Afrikani tutashtirib turuvchi strategik geografik hududda joylashuvi, boʻgʻozlar ustidan nazorati va dengizlar bilan taʼminlangan talassokratik salohiyati uning mintaqaviy hamda global siyosiy oʻmini belgilab beruvchi muhim geosiyosiy komponent sifatida baholangan. Maqolada Sovuq urushdan keyingi davrda, ayniqsa AKP hokimiyatga kelgach tashqi siyosiy vektorning oʻzgarishi va Dovutoʻgʻlining yangi strategik yondoshuvi orqali Turkiyaning tashqi siyosati koʻp vektorli shaklga ega boʻlgani koʻrsatib oʻtilgan. Xulosa oʻrinda, Turkiyaning oʻziga xos identikligi va geosiyosiy pozitsiyasi uning tashqi siyosatini uzoq muddatli istiqbolda belgilovchi omil ekanligi asoslanadi.

**ГЕОПОЛИТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОВРЕМЕННОЙ ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКИ
ТУРЕЦКОЙ РЕСПУБЛИКИ**

Жавлон Абдуллаев

Исследователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Турецкая Республика, внешняя политика, геополитические факторы, историческое наследие, цивилизационная идентичность, АКП.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности современной внешней политики Турецкой Республики в контексте геополитических факторов. В исследовании показано, что историко-имперское наследие страны, её цивилизационная идентичность, религиозно-конфессиональная структура, а также процессы модернизации на основе демократии выступают ключевыми факторами, определяющими внешнеполитический курс. Кроме того, подчёркивается, что стратегическое

географическое положение Турции на стыке Европы, Азии и Африки, контроль над проливами и наличие талассократического потенциала, обеспеченного выходом к морям, составляют важные геополитические компоненты, определяющие её региональный и глобальный политический статус. В статье также отмечается трансформация внешнеполитического вектора Турции в постхолодновоевропейский период, особенно после прихода к власти Партии справедливости и развития (АКП), когда в рамках новой стратегической концепции Ахмета Давутоглу внешняя политика приобрела многовекторный характер. В заключение обосновывается вывод о том, что уникальная идентичность и геополитическое положение Турции являются факторами, определяющими её внешнюю политику в долгосрочной перспективе.

Kirish. Turkiya Respublikasining zamonaviy tashqi siyosati, uning rivojlanish tendentsiyasini belgilaydigan turli omillar ta'siri ostida shakllangan. Ular imperial tarixiy asos, sivilizatsion rivojlanishning o'ziga xos yo'li, mintaqaviy joylashuv, diniy-konfessional jamoaviylik, ijtimoiy-siyosiy va demokratik institutsional tizimning g'arbona tamoyillarini milliy sharqona mentalitetda jamlay olgan tafakkur tarzi hamda madaniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtira olgan identiklik xususiyati bilan harakterlanadi.

Geosiyosiy muhim joylashuv, kamolchilik mafkurasi va buyuk imperiya merosi kabi uch asosiy xususiyat bilan shakllangan Turkiya Respublikasi, o'tgan yuz yil ichida o'z tashqi siyosat vektorini bir necha marotaba o'zgartirdi. Dastlabki davr Mustafo Kamolning kelishi bilan imperializmdan voz kechib kapitalizmga intilish, undan so'ng esa Sovuq urush tugashining ta'siri hamda XXI asr boshiga kelib, Adolat va taraqqiyot partiyasi hokimiyatga kelishi bilan harakterlanadi. Shuningdek, "Arab bahori"dan so'ng Turkiya tashqi siyosati bir qancha o'zgarishlarga uchradi. 2000-yillar boshlariga kelib Turkiya siyosiy elitasida islomiy qarash egalarining hukmron kuch sifatida paydo bo'lishi, Turkiya Respublikasi tashqi siyosatida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi.

Tadqiqot usullari. Turkiya tashqi siyosatining bosqichma-bosqich rivojlanishi (Kamol Atatürk davri, Sovuq urush, XXI asr AKP davri va b.) tarixiy ketma-ketlikda tahlil qilindi. Bu orqali tashqi siyosiy vektorlarning o'zgaruvchan tabiati aniqlandi. Shuningdek, Turkiyaning Kichik Osiyo makonidagi joylashuvi, Bosfor va Dardanel bo'g'ozlari, dengizlarga chiqish

imkoniyati, Rimland nazariyasi va talassokratik xususiyati asosida geosiyosiy ustunliklari tahlil qilingan. Bundan tashqari, maqolani yozishda, kontent tahlil, qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari. Kichik Osiyoning yagona geografik mintaqasi bo'lgan Turkiya Respublikasining o'ziga xos geosiyosiy pozitsiyasi uning ichki va tashqi siyosatini belgilash va amalga oshirishda o'z izini qoldiradi. Turkiya Yevropa, Osiyo va Afrikaning kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, mamlakat dengiz chegaralariga ega, ularning uzunligi quruqlikdagilardan sezilarli darajada oshadi. Bundan tashqari, Bosfor va Dardanel bo'g'ozlari ustidan nazorati Turkiyani Yevroosiy qit'asiga «darvoza» ga aylantiradi va shu bilan birga Yevroosiyodan Yevropa, Osiyo va Afrika mamlakatlariga muhim yo'l ochadi. Shunday qilib, Rimlandning dengiz va quruqlik qarama-qarshiligidagi beqiyos roli nazariyasiga ko'ra, Kichik Osiyo dunyoning geosiyosiy modelidagi asosiy mintaqaviy makon, Yevroosiyoning eng muhim aloqa zonasi hisoblanadi. Ma'lumki, Turkiya bir vaqtning o'zida to'rtta dengiz bilan yuviladi: Qora, O'rta yer dengizi, Marmar va Egey . Turkiyaning bunday geografik joylashuvi ikki tomonlama oqibatlariga olib keladi: dengiz va okeanlarga chiqish davlat uchun har doim katta ahamiyatga ega bo'lgan, shu bilan birga, bu butun mamlakat rivojlanishiga tahdid soladigan turli xil xavf-xatarlar kelib chiqishi mumkin . Turkiya tarixiy va madaniyatli birikimlari bilan Rimland mintaqasining deyarli yuragi hisoblanadi. Rimlandni o'ziga xos qiladigan eng muhim omil shundaki, u ham quruqlik, ham dengiz kuchini yarata oladi. Yuqorida sanab o'tilgan omillar birgalikda ko'rib chiqilsa, Spaykmanning markazdan chekkaga, Rimlandga e'tibor qaratgan holda harakatlanish maydoni Turkiyaga o'xshaydi.

Dengiz hukmronligi nazariyasiga ko'ra, o'zining asosiy yo'nalishlari bilan dengizlarda hukmronlik qiladigan davlat dunyoga hukmronlik qiladi. Nazariyaning poydevori Usmonli imperiyasi eng kuchli bo'lgan davrda qo'yilgan. Buyuk turk admirali Barbaros Hayrettin Poshho: "Kim dengizlarga hukmronlik qilsa, dunyoga hukmronlik qiladi " degan. Bu nazariya Barbaros Hayrettin Poshshodan roppa-rosa 400-yil o'tib, Amerika Qo'shma Shtatlari dengiz akademiyasini tamomlagan admiral Alfred Tayer Mahan tomonidan ishlab chiqilgan. Mahan jurnalist sifatida ham ishlagan va 1890-yilda nashr etilgan "Dengiz kuchlarining tarixga ta'siri" nomli asarida dengizning ahamiyatini tushuntirib berish orqali dengiz hukmronligi nazariyasini ochiq ilgari surgan. Mahan nazariyasiga ko'ra, dunyoda hukmronlik qilishning yagona sharti dengizlarda kuchli bo'lishdir. Dengizlarda hukmronlik qilgan xalq, albatta, dunyoda hukmronlik qiladi , deb da'vo qilinadi.

Yuqoridagi xususiyatlardan kelib chiqib, Turkiya Respublikasini talassokratik davlat deb tasniflash maqsadga muvofiq bo'ladi. Mamlakatning bir vaqtning o'zida bir nechta dengizlarga

chiqishi, Qora va O'rta yer dengizlarini bog'lovchi strategik ahamiyatga ega bo'g'ozlarga egaligi ko'p jihatdan mamlakat mintaqaviy siyosatining yo'nalishi va mazmunini belgilaydi. Bevesta Turkiyaning bir nechta dengizlar ustidan nazoratni qo'lga olganligi uning geosiyosiy ahamiyatini yanada oshiradi .

Yangi dunyoda kurashning asosiy manbai birinchi navbatda mafkuraviy va iqtisodiy bo'lmaydi. Insoniyat o'rtasidagi katta tafovut va kurashning asosiy manbai madaniy bo'lishini ta'kidlagan Samuyel Hantington, sivilizatsiyalar to'qnashuvi global siyosatda hukmronlik qilishini, madaniyatlar orasidagi yoriqlar esa kelajakning jang chizig'ini tashkil etishini ta'kidlaydi. Hantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" nazariyasida Turkiya "bo'lingan davlatlar" qatoriga kiritilgan bo'lib, bunday mamlakatlarning jamiyatlari qaysi sivilizatsiyaga mansubligi bo'yicha bo'lingan tuzilishga ega. Qolaversa, ularning yetakchilari o'z davlatlarini g'arb a'zosiga aylantirishga urinishlarga qaramasdan bu davlatlarning tarixi, madaniyati va an'analari g'arbiy emas . Ayni paytda, Turkiya bunday bo'linishning eng yorqin namunasi sifatida tavsiflash maqsadga muvofiq. Shu nuqtayi nazardan, Turkiyaning XX asr oxiridagi rahbarlari Turkiyani zamonaviy, dunyoviy, G'arb milliy davlatlari va madaniyatlar o'rtasidagi ko'priq sifatida belgilaydilar. Biroq, Turkiya siyosiy elitasi Turkiyani G'arb jamiyati deb ta'riflasa-da, turk jamiyati islomiy tiklanishni qo'llab-quvvatlanib, bu masalada Turkiyaning mohiyatan musulmon Yaqin Sharq davlati ekanligi iddao qilindi. Shu nuqtayi nazardan, Hantington Turkiyaning geosiyosiy jihatdan Turkiy Respublikalar tomon burilishini bashorat qilmoqda va bu vaziyat Turkiyaga turkiy sivilizatsiyasining yetakchisi bo'lish imkoniyatini taqdim etmoqda .

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Turkiya an'anaviy tashqi siyosatining yo'nalishlari vaqti-vaqti bilan o'zgarib turgan bo'lsa-da, davlatning tarixiy va mafkuraviy merosi hamda geosiyosiy joylashuvidan kelib chiqib, uning umumiy tashqi siyosat bilan bog'liq bo'lgan asosiy xususiyatlaridan xalos bo'lishning iloji yo'q. XXI asr boshlariga kelib mamlakat tashqi siyosatidagi o'zgarishlar AKPning hokimiyatga kelishi va hozirgi prezident R.Erdog'anning uzoq yillik boshqaruvi, xarizmasi, shuningdek, bir paytlar uning safdoshi bo'lgan sobiq bosh vaziri Ahmet Dovuto'g'lining sa'y-harakatlari beqiyos. Erdog'an va Dovuto'g'li, Turkiya Respublikasi "sovuq urush"dan keyingi globallashtayotgan dunyoning yangi shartlariga mos "yaqin va uzoq maqsadli strategiya"ni ishlab chiqishi kerakligini ilgari surdi . Darhaqiqat, R.Erdog'anning uzoqni ko'ra bilishi, kuchli hokimiyat tizimini yaratishi, u tomonidan ishlab chiqilgan tashqi siyosat yondoshuvi va strategiyasi zamonaviy Turkiyaning so'nggi o'ttiz yilgi tashqi siyosat kursini belgilab berdi. Bunda ma'lum ma'noda Dovuto'g'lining nazariy qarashlari ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi .

Xulosa. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Turkiya Respublikasining zamonaviy tashqi siyosati bir vaqtning o'zida tarixiy-madaniy meros, geosiyosiy omillar va mafkuraviy qarashlarning murakkab uyg'unligi bilan shakllanadi. Mamlakatning Rimland makonida joylashuvi, to'rtta muhim dengizga chiqish imkoniyati hamda Bosfor va Dardanel bo'g'ozlari ustidan nazorati unga mintaqaviy va global siyosiy jarayonlarda strategik ustunlik beradi. Shu bilan birga, talassokratik salohiyatga ega davlat sifatida Turkiya dengizlar ustidan nazoratni tashqi siyosiy manfaatlar bilan uyg'unlashtira oladi.

G'arb va Sharq sivilizatsiyalari tutashgan hududda joylashganligi sababli, mamlakat identikligi ham tashqi siyosatda o'ziga xos o'rin tutadi: bir tomondan g'arbona modernizatsiya jarayonlari davom etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan islomiy tiklanish va turkiy sivilizatsion omillar kuchaygan. Samuel Hantington tomonidan ilgari surilgan "bo'lingan davlat" modeli Turkiya misolida geosiyosiy realikni izohlashda ma'lum ma'noda tasdiq topadi, chunki mamlakat G'arb va musulmon dunyosi o'rtasida ko'prik vazifasini bajarishga intiladi.

Sovuq urushdan keyingi davrda AKPning siyosiy maydonga chiqishi va Ahmet Dovuto'g'lining nazariy konsepsiyasi Turkiya tashqi siyosatini ko'p vektorlilikka olib keldi. R. Erdoganing kuchli siyosiy liderligi esa ushbu strategiyaning amaliy ko'rinishini belgilab berdi. Natijada Turkiya Yaqin Sharq, O'rta Osiyo, Yevropa va Afrikada faol tashqi siyosiy subyekt sifatida shakllandi.

Umuman olganda, Turkiya tashqi siyosatining kelajakdagi rivojlanish istiqbollari ham mamlakatning geosiyosiy pozitsiyasi, talassokratik imkoniyatlari va sivilizatsion identikligiga tayanadi. Ushbu omillar Turkiyaga nafaqat mintaqaviy, balki global siyosiy jarayonlarda ham strategik o'yinchi sifatida qatnashish imkonini taqdim qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akşin, Sina. Kısa Türkiye Tarihi. – İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 2008.
2. Keküllüoğlu, Ufuk Can; Valiyeva, Kamala. Klasik Jeopolitik Teorilerin Perspektifinden Türkiye'nin Jeopolitik İzdüşümü. Working Paper Series, Vol. 3, Issue 3, 2022.
3. Köstem, Seçkin. 2018. "Different Paths to Regional Hegemony: National Identity Contestation and Foreign Economic Strategy in Russia and Turkey." Review of International Political Economy 25, no. 5: 726–52.
4. Желтов, В. В. Геополитика: история и теория. – Москва: Восток, 2009.
5. Маврина, Ю. В. Концепция внешней политики Турции Ахмета Давутоглу // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия История. Международные отношения. – 2014. – №1. – С. 69–75.

6. Мамеда Мустафаева. Трансформация внешней политики Турции через призму последних конституционных реформ. URL: <https://russiancouncil.ru/blogs/mamed-mustafaev/transformatsiya-vneshney-politiki-turtsii-cherez-prizmu-poslednikh-kon>
7. Мрасси, Рашид. Региональные, географические и стратегические факторы, влияющие на внешнеполитический курс Турции // Право и управление. XXI век. – Москва, 2013. – № 2 (27). – С. 17.
8. Сотниченко, А. А. Турция: геополитическая ось Евразии // Геополитика. Вып. IX. – Москва: Восток, 2011.